“Oʻzbekiston Respublikasi suv xo’jaligi energiya samaradorligini oshirish” loyihasi

Mamlakat:	Oʻzbekiston
Loyiha raqami:	50996
Faoliyat sohasi:	Infra Eurasia
Bildirishnoma turi:	DAVLAT
Ekologik toifasi:	B
Tasdiqlanish muddati sanasi:	
Qaysi bosqichdaligi:	Konsepsiya muhokamadan oʻtgan
Loyihaning qisqacha mazmuni Ingliz tilida chop etilgan sana:	2019-yil, 20-sentabr

Loyiha mazmuni

Fargʻona vodiysining uchta viloyati boʻylab sugʻorma suvlarini yetkazish (SSY) va boshqa yordamchi infratuzilma uchun foydalaniladigan nasos stansiyalarini modernizatsiya qilishni moliyalashtirish uchun Oʻzbekiston Respublikasiga 200 million AQSH dollarigacha (187 million yevro) suveren (davlat kafolati asosidagi) kredit ajratish (“Loyiha”).

Loyiha maqsadi

Loyiha milliy SSY tizimida energiya va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish orqali iqlim oʻzgarishiga qarshi barqarorlikni oshirishga imkon berishi kutilmoqda.

Oʻtish davri ta’siri

Kutilayotgan oʻtish davri ta’sirining bahosi: 71

Dastlabki oʻtish davri boʻyicha sifati: Yashil. Loyiha energiya samaradorligini sezilarli darajada oshirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish orqali iqlim oʻzgarishi oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Loyihaning yashil iqtisodiyotga oʻtishdagi (“GET”) hissasi 100% ni tashkil qiladi.

Loyihaning ikkalmchi sifat koʻrsatkichi: Samarali Boshqaruvdir. Bank Oʻzbekiston Respublikasining ushbu sohadagi uzoq muddatli siyosatini ishlab chiqish hamda institutsional tuzilma va boshqaruvni

takomillashtirish orqali davlat tomonidan tartibga solishning ma’muriy yondashuvidan bozor tamoyillariga o‘tishni qo‘llab-quvvatlaydi va bunga ko‘maklashadi.

Mijoz haqida

O‘ZBEKISTON SUVEREN

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag‘lar

200 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy

qiymati

230 000 000,00 AQSH dollari

Ekologik-ijtimoiy xulosa

B toifasiga kiritilgan (2019 ESP). Farg‘ona vodiysining uchta viloyatida SSY uchun foydalanilayotgan 118 ta nasos stansiyasini (NS) ta’mirlash bilan bog‘liq ekologik va ijtimoiy xavf hamda ta’sirllar aniqlandi. Ular Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (“ESAP”) amalga oshirish orqali boshqariladi. Loyihaning tegishli Ekologik va ijtimoiy ekspertizasi (“ESDD”) mustaqil maslahatchi tomonidan amalga oshirildi; u mijozning mavjud operatsiyalarini audit qilish va tanlangan nasos stansiyalariga tashriflarni o‘z ichiga oladi. Loyiha yerlarni sug‘orishning qamrovi, barqarorligi va ishonchliligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi fermerlar/fermer xo‘jaliklari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

ESDD natijalarining ko‘rsatishicha, mijozning obyektlaridagi salohiyati va ekologik-ijtimoiy tizimi cheklangan harakterga ega. Boz ustiga, ularda milliy ekologik qonunchilik talablariga to‘liq rioya etilmaydi. Qolaversa, mijozda ekologik va ijtimoiy siyosat hamda amaldagi ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi mavjud emas. Shuningdek, atrof-muhit va ijtimoiy faoliyatni boshqarish uchun alohida xodim faoliyat ko‘rsatmaydi. ESDD davomida ba’zi ruxsatnomalar (masalan, atmosferga chiqariladigan chiqitlar, chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha ruxsatnomalar) ham yo‘q ekanligi aniqlandi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ESAP bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligida ekologiya bo‘yicha mutaxassislar tayinlanishi, ekologik-ijtimoiy, mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimining joriy etilishi hamda suv va chiqindilarga ruxsatnomalar olish talab etiladi. Kadrlar bo‘yicha barcha amaliyotlar milliy qonunchilik va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan XMTning asosiy konventsiyalari qoidalariga mos keladi. Shu bilan birga, vazirlikning hududiy nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari xodimlariga nisbatan rasmiylashtirilgan kadrlar siyosati yoki shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi ham mavjud emas. Bunday mexanizm esa, ESAP bo‘yicha talab qilinadi.

Qayta ta’mirlash ishlari bilan bog‘liq asosiy ekologik va ijtimoiy xavflar xavfli chiqindilarning paydo bo‘lishi va tuproqning ifloslanishi, shuningdek, shovqin va havo chiqindilari sabab yaqin atrofdagi aholi uchun ehtimoliy noqulayliklar bilan bog‘liq. Chiqindilarni utilizatsiya qilish bo‘yicha ixtisoslashgan/litsenziyaga ega korxonalar bilan shartnomalar tuzilmagan. Xavfli moddalar va materiallarni saqlash tartib-qoidalari takomillashtirilishi zarur (masalan, yerga oqish va to‘kilishlar, moylarni noto‘g‘ri saqlash). Ko‘zda tutilgan barcha zaruriy takomillashuvlar ESAP tarkibiga kiritilgan. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi sohasidagi umumiy milliy qonunchilik talablari bajarilib kelinmoqda. Shu bilan birga, mijoz obyektlariga qilingan tashriflar davomida yong‘in va elektr xavfsizligi bo‘yicha davlat talablari hamda sanitariya-gigiyena me’yorlarini bajarishda ayrim kamchiliklar aniqlandi. Bunday tashriflar davomida suvga tasodifiy tushib ketish yoki elektr toki urishi kabi aholi salomatligi va xavfsizligiga bo‘lgan xavf-xatarlar ham aniqlandi. Shuningdek, ESAP’ga bir nechta tuzatishlar kiritish talab qilinadi (aholi punktlaridan o‘tadigan uchastkalarda ochiq kanallar bo‘ylab panjara yoki to‘siqlar va elektr transformatorlari atrofida panjaralar o‘rnatish kabi).

Nasos stansiyalari obyektlari joylashgan yer uchastkalari davlat mulki hisoblanadi. Kichik maydondagi yerlarni ajratish zarurati (panjaralar o‘rnatish va ba’zi joylarda nasos stansiyasi binosini qurish uchun) tufayli vazirlik yerga egalik huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish va nasos stansiyalari atrofida har qanday yerdan foydalanuvchilarni (qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi / yaylov hududlaridan foydalanish) aniqlash tartibini ishlab chiqishi va bunda loyihaning kishilar turmush tarziga ta’sirini o‘rganish hamda jabr ko‘rgan shaxslar uchun badal to‘lash masalalarini jiddiy o‘rganish kerak bo‘ladi.

Ba’zi nasos stansiyalari baliqlarni himoya qilish moslamalari bilan jihozlangan, ammo aksariyatida bunday moslamalar yo‘q. ESAP suv olish va chiqarish inshootlarida baliqlarni himoya qilish moslamalarini o‘rnatishni va transformator podstansiyalarida qushlarni hisobga olishni (va kerak bo‘lsa, qushlar nobud bo‘lishining oldini olish uchun himoya vositalarini o‘rnatishni) talab qiladi. Loyiha komponentlarini amalga oshirish alohida qazilma yoki tuproq ishlari yoxud chuqur qazish kabi ishlarni o‘z ichiga olmaydi. Shuningdek, loyihaning amalga oshirilishi madaniy meros obyektlariga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Ma’lumotni oshkor qilish va tashqi manfaatdor tomonlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish mexanizmi mavjud emas. Shu sababli, COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurash chjora-tadbirlariga rioya qilgan holda, loyiha doirasida manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi va shikoyatlarini ko‘rib chiqish mexanizmini ishlab chiqildi.

Nasoslarni dastlabki loyiha quvvatidagi nasoslarga almashtirish olinadigan va chiqariladigan suvning ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, avtomatlashtirishning joriy etilishi suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va fermer xo‘jaliklarining talabidan kelib chiqib, suv bilan ta’minlashni yanada yaxshilash imkonini beradi. Suv ta’minotidagi yo‘qotishlarni kamaytirish va xo‘jaliklarda suvdan foydalanishni yaxshilash bo‘yicha qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar bilan birgalikda (ushbu loyiha boshlang‘ich qadam deya belgilangan O‘zbekiston hukumatining uzoq muddatli investitsiya dasturida ko‘zda tutilganidek), bir gektar uchun beriladigan suvning amaldagi hajmini pasaytirish ko‘zda tutiladi, chunki shunda sarflanadigan suv hajmi va vaqtni aniqroq nazorat qilish ta’minlanadi.

Oqibatlarni kamaytirish bo‘yicha tavsiya etilgan chora-tadbirlar Atrof-muhit, ijtimoiy boshqaruv va monitoring rejasida (“ESMMP”) umumlashtirilgan. ESMMP mustaqil hujjat bo‘lib, u loyiha pudratchilarini tanlash bo‘yicha tender hujjatlariga ilova qilinadi va uni amalga oshirish ESAPda aks ettiriladi. ESAP loyihaning loyihani amalga oshirish talablariga (“PR”) muvofiq tuzilgan va mijoz bilan Direktorlar kengashi yig'ilishidan oldin kelishiladi. Bank yillik ekologik va Ijtimoiy hisobotlarni (“AESE”) ko‘rib chiqish,

mijoz bilan muloqot qilish va zarurat tugʻilganda, obyektlarga tashrif buyurish orqali ESAP'ning bajarilishini nazorat qiladi.

Texnik koʻmak

Imzolashdan oldin:

1-texnik hamkorlik: Texnik-iqtisodiy asoslash (texnik, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ekspertiza hamda institutsional baholash). 475 000 yevrogacha boʻlgan loyiha topshirigʻi boʻyicha xarajatlar YTTB Ta'sischilarining maxsus fondi ("SSF") tomonidan moliyalashtiriladi.

Imzolashdan keyin:

2-texnik hamkorlik: Joriy sohaviy islohotlarni amalga oshirishda Suv xoʻjaligi vazirligini qoʻllab-quvvatlash maqsadida institutsional takomillashtirish, boshqaruv va raqamlashtirish dasturi. Bu loyiha topshirigʻi 700 000 yevrogacha baholangan boʻlib, u xalqaro donor yoki SSF tomonidan moliyalashtiriladi.

Qoʻshimchalilik sharti

YTTB bu kredit uchun oʻrtacha bozor koʻrsatkichidan koʻproq toʻlash muddati va imtiyozli davr taklif qiladi, bu esa, loyihaning risoladagidek ishga tushib olishi uchun muhim omil sanaladi. YTTBning bu mablagʻlari moliyalashdagi tanqislikni bartaraf qilish uchun zarurdir. Shu bilan birga, YTTB xalqaro moliya muassasalari, hukumat, tijorat banklari kabi tashkilotlarning boshqa moliyaviy manbalarni bozordan siqib chiqarmaydi va/yoki ularni toʻldirmaydi.

Bank oʻzi qoʻyadigan shartlari (masalan, Xaridlar siyosati va qoidalari, ESAP) orqali vazirlikning yuqori standartlarga erishishini qoʻllab-quvvatlaydi.

Loyihada YTTBning ishtiroki Oʻzbekiston Respublikasida SSY sektorida uzoq muddatli islohotlarning amalga oshirilishiga koʻmaklashadi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Jasur Qosimov
118pumpstation@gmail.com
agency@minwater.uz
+99871-202-47-22
+99899-572-09-23
http://water.gov.uz
Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Labzak koʻchasi, 1a-uy. Pochta indeksi: 100000

Oʻtish davri nima

Oʻtish davri ta'sirini baholash boʻyicha YTTB yondashuvi haqidagi qoʻshimcha ma'lumotni mana bu havoladan olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid boʻlmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bogʻlaning:

Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga oʻting:

Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy maʼlumotlar

Aniq soʻrovlar YTTB soʻrovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB oʻzining "ekologik jihatdan masʼul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi boʻlgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qoʻllash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini taʼminlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni koʻrib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni oʻz ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va taʼsirining mohiyati va koʻlamidan kelib chiqqan holda, zarurat tugʻilganda, YTTB oʻz mijozlaridan qoʻshimcha ravishda loyihalarning risklarni va taʼsirlari haqida maʼlumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar koʻrilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi boʻyicha qoʻshimcha maʼlumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan meʼyorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda masʼuliyatli boshqaruvga koʻmaklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilgʻor xalqaro tajribalarga muvofiq boʻlishini taʼminlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin boʻlmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yoʻl qoʻyilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga koʻra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiisteʼmol qilish boʻyicha maʼlumotni tekshiruvchi masʼul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni boʻlsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshligʻiga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron pochtasi orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy maʼlumotlar tegishli choralar koʻrish uchun OCCO tomonidan koʻrib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat koʻrsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday maʼlumotlar yaxshi niyatni koʻzlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga koʻmaklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun Axborotdan foydalanish siyosati sahifasiga oʻting.

Muayyan savollaringizni YTTBning ma'lumot soʻrovi orqali yuborishingiz mumkin..

Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita oʻzaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga boʻlgan urinishlari samarasiz boʻlsa, ular YTTBning Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi ya'ni IPAM yordamida oʻzlarining oʻsha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

IPAM, arizachilarning fikriga koʻra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin boʻlgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning maqsadi loyihaning manfaatdor tomonlari oʻrtasida ekologik, ijtimoiy va axborotni ommaviy oshkor qilish boʻyicha muammolarini hal etishdagi murosani qoʻllab-quvvatlash, Bank oʻzining Ekologik va ijtimoiy siyosatigayoki Axborotdan erkin foydalanish siyosatining loyihaga oid tartiblariga rioya qilayotganini tekshirish va zarur hollarda, kelajakda ushbu qoidalarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, shuningdek, Bank tomonidan kelgusida bunday holatlarning oldini olishdan iborat.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, koʻrib chiqilishi kerak boʻladigan shikoyatlarni joʻnatish uchun Loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi vebsaytiga kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qoʻshimcha ma'lumot olish va shikoyat joʻnatish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bogʻlanishingiz mumkin.